



PEDAGOGIK KOUCHING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Boymurodova G.T.

Buxoro davlat pedagogika instituti p.f.d.(DSc) professor

Tayanch soʻzlar: kouching, koucher, kouching uslubi, ilgʻor xorijiy tajribalar, strategik maqsadlar, integratsiya qilish, kasbiy mahoratini oshirish hamda salohiyati va negizini shakllantirish.

Ключевые слова: коучинг, тренер, стиль коучинга, передовой зарубежный опыт, стратегические цели, интеграция, повышение профессиональных навыков, развитие потенциала и основ.

Key words: coaching, coach, coaching style, advanced foreign experiences, strategic goals, integration, professional skills improvement, and the development of potential and foundation.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada pedagogik kauching faoliyatini nazariy-amaliy asoslari yoritib berilgan. Kouchingda yangi mashgʻulotlar yaratadigan, motivatsiyani oshiradigan va natijalarni oldindan kafolatlaydigan zamonaviy pedagog faoliyati hisoblanadi. Pedagogik kauching zamonaviylikni, tezkorlikni hamda innovatsion faoliyatni koucher, kouching uslubini talab etishishi keltirilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы педагогической коучинговой деятельности. Коучинг считается современной педагогической деятельностью, которая создает новые упражнения, повышает мотивацию и заранее гарантирует результаты. Педагогический коучинг предполагает современность, скорость и инновационную деятельность, требующую тренера и стиля коучинга.

SUMMARY:

This article discusses the theoretical and practical foundations of pedagogical coaching activities. Coaching is considered a modern pedagogical activity that creates new exercises, increases motivation, and guarantees results in advance. Pedagogical coaching involves modernity, speed, and innovative activity, requiring a coach and a coaching style.

Yangilanayotgan Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim sohasi meʼyoriy - huquqiy bazasini tubdan yangilash ilgʻor xorijiy tajribalar, ilmiy-metodik koʻrsatmalar, dasturlar va texnologiyalarni maktabgacha taʼlim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarda umumiy dunyoqarashni shakllantirish, ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘zbekiston- 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida: Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Ushbu farmonga asosan pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada maktabgacha ta‘limni boshqarish tizimini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish, maktabgacha ta‘lim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Bugungi kunda pedagoglik kasbiga qo‘yilayotgan talab va zamonaviy ta‘lim tendensiyalarini amaliyotga tadbqiq etish kabi dolzarb masalalar pedagogning kasbiy malakasini takomillashtirish ehtiyoji mavjudligini ko‘rsatadi. Bunda pedagogik kauching faoliyatini amaliyotga joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik kauching faoliyati– pedagog mutaxassislarining bilim va malakalarni qiziqish bilan egallashga, faol va ongli ravishda o‘rganishga, bilim va konikmalarni rivojlantirishga, potensialini maksimal darajada oshirishga yordam beradigan faoliyat turi bo‘lib, rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish hamda salohiyati va negizini shakllantirishdan iborat.

Ma‘lumotlarga tayangan holda ayrim terminlarning izohini keltirib o‘tamiz: **kouching** – bu ta‘limning ma‘nosini tushunishga yordam beradigan, yangi mashg‘ulotlar yaratadigan, motivatsiyani oshiradigan va natijalarni oldindan kafolatlaydigan zamonaviy pedagogik hamkorlik usulidir.

Koucher – bu pedagogni yangi bosqichga ko‘taradigan va kerakli maqsadlarga erishishda yordam beradigan shaxs hisoblanadi. **Pedagogik kouching** ingliz tilidan olingan bo‘lib, eng samarali natijani olish uchun birgalikdagi ijtimoiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatni amalga oshirish tizimidir. **“Pedagogik kochung”** pedagoglarning shaxsiy va kommunikativ rivojlanish tartibini belgilaydi. **Kouching uslubi** – bu pedagoglarni tashkilotning ulkan manbai sifatida qarashidir, bu yerda har bir xodim individual, betakror, tanlov qilishga, mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga va qaror qabul qilishga qodir faoliyatdir.



Yuqorida keltirilgan malumotlarga tayanib, quyidagi ta'rifni keltirib o'tamiz: **Pedagogik kauching** - o'qituvchining yuri ijodiy salohiyatining strategik maqsadlar asosidagi noodatiy faoliyat natijasidir.

Pedagogik kouchingning vazifalari:

- ▶ Mutaxassislarining o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini saqlab qolish, o'z-o'zini munosib baholashni shakllantirish;
- ▶ Pedagog-mutaxassislarga kasbini to'laqonli egallash, sohaga oid zarur tajriba va mahoratni shakllantirish;
- ▶ Ta'lim va tarbiyaning zamonaviy usul va uslublarni o'rgatish orqali o'z lavozim majburiyatlarini to'laqonli bajara olish uchun zamin yaratish;
- ▶ O'z kasbining ustasi sifatida shakllanishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berish;
- ▶ Yuqori natijalarga erishishga yordam beradigan ta'lim jarayoni subyektlari bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish;
- ▶ Mehnat jamoasiga moslashtirish va ichki mehnat tartib qoidalari, jamoa shartnomalariga rioya qilish tushunchalarini berish.
- ▶ Pedagoglarning bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali ta'sir o'tkazish sohasidagi qobiliyatini rivojlantirishga imkon berish;
- ▶ Pedagoglarni pedagogik faoliyatini tashkil qilishda yuzaga kelgan muammolarni adekvat echimiga olib chiqishga imkon berish;
- ▶ Nazariy asoslangan vosita, usul va tashkiliy ishlar shaklini to'g'ri tashkillashtirish;
- ▶ Pedagogik vazifalarni belgilash, shakllantirish, modellashtirish va ularning ijrosini ta'minlashga sharoit yaratish;
- ▶ Pedagoglarni yuksak axloqiy tamoyillar asosida, o'z vazifa va majburiyatlarini bajarishda vijdonan va mas'uliyat bilan yondoshish, huquq va vakolatlarini to'g'ri anglab etish, burch hamda kasbga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.

Pedagogik kauching faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, psixolog maslahat hamda tavsiyalar beradi va ularga rioya qilishni talab qiladi. Psixologiya o'tmishdagi tajribaga e'tibor qaratadi, Kouching maqsadlar va kelajakdagi harakatlarga e'tibor qaratadi, uning vazifasi natijaning samaradorligi hisoblanadi.

Treningning qat'iy jadvali, aniq mavzusi bor va trener ta'lim va tarbiya oluvchi ustidan nazorat qiladi. Kouching erkinroq, kouchning nazorati sezilmayd, o'zaro munosabatlar qat'iy andozalardan xoli holda faoliyatini tashkil qiladi.

**PEDAGOGIK KOUCHERNING MAJBURIYATLARI**

1

Yosh mutaxassislarning ish faoliyati va axloqiy safatlarini, uning pedagogik faoliyatga, jamoaga bo'lgan munosabatlarini o'rganish, mutaxassisligiga to'g'ri yo'naltirish

2

Ta'lim sohasiga oid qonunchilik talablari, idoraviy-me'yoriy hujjatlarni bilish;

3

Reja asosida uslubiy yordamga muhtoj mutaxassislarning mustaqil ravishda kasbiy faoliyatini nazorat qilish va baholash;

1

Pedagogning pedagogik, uslubiy, kasbiy tayyorgarligi, tashabbuskorligi, ijodkorligi, bilimga egaligini hamda intellektual rivojlanish darajasini hisobga olgan holda uslubiy yordamga muhtoj mutaxassislar bilan hamkorlik ish rejasini ishlab chiqish;

2

Yoshlarning yutuq va kamchiliklari bo'yicha yakuniy xulosa berish, "Pedagogik kouching" hamkorligi ish rejasi bo'yicha oraliq va yakuniy xulosalar tayyorlash hamda pedagoglarning kelgusidagi faoliyati bo'yicha takliflar kiritish;

Konsultant o'z bilimiga tayangan holda muammoning yechimini taklif qiladi, kouch mijoz bilan birgalikda muammoning yechimini izlaydi. Kouchingda konsaltingdan farqli ravishda ekspertiza talab qilinmaydi.

Mentorlik murabbiylarning professional obro'sini tan olishni nazarda tutadi, kouching esa yo'q. Murabbiy, odatda, katta ish tajribasiga ega bo'lgan maslatchidir. Va ta'lim: men qilgandek qiling! printsipiga muvofiq amalga oshiriladi. Kouchingning printsipi: buni to'g'ri bajaring! Chunonchi to'g'ri bajarish vaziyat va insonning o'ziga ham bog'liq.

YOSH MUTAXASSISLAR-NING MAJBURIYATLARI

1

Kasbiy mahoratini oshirishi, o'z ustida ishlashi, amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'lishi

2

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, ish faoliyatiga taaluqli ish hujjatlar tuzilmasi, tashkilot faoliyatining o'ziga xosligi va egallab turgan lavozimi bo'yicha majburiyatlarini bilishi

3

Reja asosida uslubiy yordamga muhtoj mutaxassislarning mustaqil ravishda kasbiy faoliyatini nazorat qilish va baholash;

4

O'zining pedagogik bilim va ma'naviy ongini doimiy rivojlantirish;



Kouch (maslahatchi, ustoz) turli masalalar yechimlari uchun ijodiy izlanish va faoliyatni rag'batlantiradi hamda tarbiyachi-pedagoglarning maqsadlarga erishish, kasbiy faoliyatida o'zgarishlar kiritish qat'iyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Boshqacha aytganda, kouching jarayonida tarbiyachilar maqsadga erishishning o'ziga xos, betakror yo'lini topadi va kouch ijodiy muhit, muqobil variantlarni izlash uchun maxsus maydon, ishonch muhitini yaratadi, o'z ngavbatida bu jarayonda tarbiyachi-pedagoglarning shaxsiy g'oyalari va takliflari e'tibordan chetda qolmaydi.

Kouching quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1 bosqich – kouch hamda tarbiyachi-pedagoglar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlarni yo'lga qo'yish;

2 bosqich – aniq maqsadga aerishishga asoslangan vazifalarni o'zaro belgilab olish;

3 bosqich - dolzarb muammoni (vaziyatni) tadqiq qilis

4 bosqich - natijalarga erishish yo'lidagi ichki va tashqi to'siqlarni aniqlash;

5 bosqich - muammoni hal qilish yo'lidagi qiyinchilik va to'siqlarni bartaraf etish imkoniyatlarini ishlab chiqish va tahlil qilish;

6 bosqich - muayyan harakat yo'nalishini tanlash va harakat rejasini tuzish;

7 bosqich - ma'lum bir sanaga qadar amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida kelishuv.

Har bir keyingi kouching- mashg'uloti nima qilinganligi, nima muvaffaqiyatli bo'lganligi va nimani yaxshiroq qilish mumkinligini ko'rib chiqish bilan boshlanadi.

Shunday qilib, kouching, kouch va tarbiyachi-pedagoglarning o'zaro samarali faoliyati ta'siriga asoslanadi, bunda kouch har bir tarbiyachi-pedagogning o'zi uchun muhim bo'lgan maqsadlarga erishish uchun ma'lum bir faoliyat sohasida optimal vaqt oralig'ida shaxsiy salohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus shart-sharoitlarni yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2022 uil 28 uanvardagi «2022-2026 uillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyoat strategiuasi to'g'risida»gi RF-60-son Farmoni.

2. Gibner Ya. M. Kouching kak instrument effektivnogo obucheniya i razvitiya personala // Molodoy uchenyy. 2011. № 8. S. 121-124.

3. Kostyaeva N.A., Kuznesova Ye.V. Kouching kak innovatsionnaya texnologiya povyisheniya professionalnogo masterstva pedagogov // Pedagogicheskaya masterskaya. Vse dlya uchitelya. 2015. № 9 (45). S. 19-22.

4. Dobrotvorskiy I.L. Kouching – lichnaya trenirovka: Pomoc' v reshenii samyx zaputannyx problem v upravlenii, biznese i karere. 3-ye izd., pererab. i dop. M., 2006. – 289 s.

5. Zыryanova N.M. Kouching v obuchenii podrostkov // Vestnik prakticheskoy psixologii obrazovaniya. 2004. №1. S. 46 - 49.